

**HUQUQ IJODKORLIGI: NAZARIYA, AMALIYOT VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

Ilmiy rahbar: **Sattorov Dilshod Yuldashevich**
Bojxona instituti "Umum-huquqiy fanlar kafedrası"
o'qituvchisi, dotsent

Niyozov Ulug'bek Xoshimjonovich
O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining Bojxona
instituti, Bojxona ishi yo'nalishi
1-kurs, 525-guruh kursanti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 10.01.2026

Revised: 11.01.2026

Accepted: 12.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

Huquq ijodkorligi,
qonunchilik tashabbusi,
parlament nazorati,
qonun loyihasi,
normativ-huquqiy
hujjat, referendum,
aqli tartibga solish,
tartibga solish ta'sirini
baholash, qonuniylik,
demokratizm, lobbizm,
gilyotina usuli

Ushbu ilmiy ishda davlat va huquq nazariyasining markaziy masalalaridan biri bo'lgan huquq ijodkorligi institutining mazmun-mohiyati, uning jamiyat hayotidagi o'rni hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari atroflicha tahlil qilingan. Muallif huquq ijodkorligini shunchaki yuridik texnik jarayon sifatida emas, balki chuqur ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida talqin qilib, uning "huquqni shakllantirish" jarayonidan farqli jihatlarini yoritib bergan. Ishda qonunchilik tashabbusi, qonun loyihalarini tayyorlash, muhokama qilish va qabul qilishning protsessual bosqichlari milliy qonunchilik hamda xorijiy tajriba asosida o'rganilgan. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan "aqli tartibga solish" (smart regulation), tartibga solish ta'sirini baholash va "tartibga solish gilyotinasini" kabi innovatsion usullarning ahamiyati ochib berilgan. Yakunda milliy qonunchilik tizimini barqarorlashtirish, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlar salmog'ini oshirish va lobbizm institutini huquqiy maydonga olib kirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Asosiy matn

Huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'ldan borayotgan har qanday mamlakat uchun qonunlarning sifati, ularning hayotiyiligi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi real samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Davlat boshqaruvining eng muhim va mas'uliyatli funksiyalaridan biri bo'lgan huquq ijodkorligi jamiyatda mavjud bo'lgan obyektiv ehtiyojlarni, turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini va

=====

xalqning xohish-irodasini aniq yuridik normalar shakliga keltirish jarayonidir. Tarixiy tajriba va zamonaviy siyosiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, davlatning rivojlanish darajasi, iqtisodiy barqarorligi va xalqaro maydondagi obro'-e'tibori uning qonunlari qanchalik adolatli, tushunarli va zamon talablariga mos ekanligi bilan bevosita o'lchanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar strategiyasi doirasida qonunchilik bazasini tizimlashtirish, qonunlarning to'g'ridan-to'g'ri ishlashini ta'minlash va boshqaruv tizimiga "aqlli tartibga solish" mexanizmlarini joriy etish kun tartibidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi. Shu ma'noda, huquq ijodkorligi shunchaki qog'ozda qonun yozish va uni e'lon qilishdan iborat texnik ish emas, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni o'rnatish, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning birlamchi va fundamental bosqichidir.

Nazariy jihatdan yondashganda, huquq ijodkorligi tushunchasi vakolatli davlat organlari, mansabdor shaxslar yoki bevosita xalq tomonidan referendum yo'li bilan yangi huquqiy normalarni o'rnatish, amaldagilarini o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan maxsus faoliyatni anglatadi. Bu jarayonning murakkabligi shundaki, u iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Taniqli yuridik fanlar doktori, professor X.T. Odilqoriyev ta'kidlaganidek, huquq ijodkorligi davlatning yuksak darajadagi intellektual va tashkiliy faoliyati bo'lib, u xalq irodasini qonun shaklida ifodalashga qaratilgandir. Ushbu ta'rif mazkur jarayonning nafaqat yuridik, balki chuqur ijtimoiy-siyosiy mohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu o'rinda huquqshunos olim Z.M. Islomovning fikrlariga tayangan holda, "huquq ijodkorligi" tushunchasini "huquqni shakllantirish" (law-formation) tushunchasidan farqlash lozimligini qayd etish joiz. Huquqni shakllantirish – bu obyektiv ijtimoiy jarayon bo'lib, unda jamiyat rivojlanishi davomida urf-odatlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy normalar tabiiy ravishda paydo bo'ladi. Huquq ijodkorligi esa ana shu tabiiy shakllangan qoidalarning davlat tomonidan rasman tan olinishi, sanksiyalashtirilishi va yozma hujjat shakliga keltirilishidir. Demak, samarali qonun jamiyatdan uzilgan holda kabinetlarda to'qib chiqarilmaydi, balki jamiyat hayotida pishib yetilgan munosabatlarning huquqiy ifodasi bo'ladi.

Huquq ijodkorligi faoliyati o'zining ko'lami va subyektlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi, bular orasida eng asosiysi qonun ijodkorligidir. Qonun ijodkorligi oliy vakillik organi bo'lmish parlament yoki umumxalq referendumini orqali amalga oshiriladigan, oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatlarni qabul qilish jarayonidir. Bundan tashqari, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida qonunosti ijodkorligi ham muhim o'rin tutadi. Prezident, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunlar ijrosini ta'minlash va aniqlashtirish maqsadida qarorlar, farmonlar va buyruqlar qabul qiladilar. Biroq, demokratik davlatlarda qonunosti hujjatlarining ko'payib ketishi va ular qonunlardan ustun bo'lib qolishi holatlariga yo'l qo'ymaslik muhim hisoblanadi. Shuningdek, jahon tajribasida delegatsiya qilingan huquq ijodkorligi amaliyoti ham mavjud bo'lib, bunda

parlament o'zining qonun chiqarish vakolatining ma'lum bir qismini vaqtincha ijro etuvchi organga, odatda hukumatga topshiradi. Bu usul favqulodda vaziyatlarda yoki tezkor qarorlar qabul qilish zarurati tug'ilganda qo'llaniladi.

Huquq ijodkorligi jarayonining sifati va samaradorligi uning qanday prinsiplarga asoslanishiga bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunida ushbu faoliyatning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, demokratizm, ilmiylik, oshkoralik va tizimlilik qat'iy belgilab qo'yilgan. Qonuniylik tamoyili shuni anglatadiki, har qanday qabul qilinayotgan yangi hujjat mamlakat Konstitutsiyasiga va yuqori turuvchi qonunlarga aslo zid bo'lmasligi shart, aks holda huquqiy nigilizm va boshboshdoqlik yuzaga keladi. Demokratizm tamoyili esa qonun loyihalarining keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi, fuqarolik jamiyati institutlari va oddiy fuqarolarning fikr-mulohazalarini inobatga olishni nazarda tutadi. Bugungi kunda "Mening fikrim" portali yoki regulation.gov.uz sayti orqali fuqarolarning qonun loyihalarini muhokama qilishdagi ishtiroki bunga yaqqol misoldir. Ilmiylik tamoyili qonun loyihasini ishlab chiqishda chuqur ilmiy tahlil, sotsiologik so'rovlar, qiyosiy-huquqiy o'rganishlar va ekspert xulosalariga tayanishni talab qiladi. Professor N.S. Saburov to'g'ri ta'kidlaganidek, ilmiylik tamoyili buzilgan joyda qonun "o'lik" bo'lib tug'iladi va u hayotda ishlamaydi. Oshkoralik va tizimlilik tamoyillari esa huquqiy axborotning ochiqligini va qonunchilik bazasining ichki ziddiyatlardan xoli bo'lishini ta'minlaydi.

Huquq ijodkorligi murakkab va ko'p bosqichli protsessual jarayon bo'lib, u g'oyaning tug'ilishidan to qonunning kuchga kirishigacha bo'lgan mas'uliyatli yo'lni bosib o'tadi. Birinchi bosqich qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanish bilan boshlanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasiga ko'ra, bu huquqqa Prezident, Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi, Bosh prokuror va Markaziy saylov komissiyasi egadir. Qonun loyihasi parlamentga kiritilgach, ikkinchi bosqich – muhokama jarayoni boshlanadi. Loyiha dastlab mas'ul qo'mitalarda va siyosiy partiyalar fraksiyalarida "elakdan o'tkaziladi", so'ngra Qonunchilik palatasining yalpi majlisida ko'rib chiqiladi. Odatda qonunlar uch o'qishda qabul qilinadi: birinchi o'qishda qonunning umumiy konsepsiyasi va zarurati muhokama qilinsa, ikkinchi o'qishda har bir modda alohida-alohida tahlil qilinib, tuzatishlar kiritiladi, uchinchi o'qishda esa tahririy jihatdan pishitilib, uzil-kesil ovozga qo'yiladi.

Qonun qabul qilingandan so'ng navbatdagi bosqich Senat tomonidan ko'rib chiqish hisoblanadi. Senat qonunni ma'qullashi yoki rad etishi mumkin, bu esa hududiy manfaatlar va umumdavlat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Senat ma'qullagan qonun Prezidentga imzolash uchun yuboriladi. Prezident davlat rahbari sifatida qonunni imzolaydi va e'lon qiladi yoki unga nisbatan o'zining "veto" huquqini qo'llab, e'tirozlar bilan parlamentga qaytarishi mumkin. Jarayonning yakuniy nuqtasi qonunning

=====

rasmiy manbalarda e'lon qilinishi va belgilangan tartibda kuchga kirishidir, chunki e'lon qilinmagan qonun ijro etilishi majburiy emas.

So'nggi yillarda O'zbekistonda huquq ijodkorligi sohasida tub islohotlar amalga oshirilmogda, xususan, "aqli tartibga solish" (smart regulation) modeliga o'tish harakatlari kuchaydi. Bu modelning asosiy elementlaridan biri tartibga solish ta'sirini baholash (TSTB) tizimidir. Mazkur tizim qonun loyihasi hali qabul qilinmasdan turib, uning kelajakda iqtisodiyotga, tadbirkorlik muhitiga va ijtimoiy sohalarga qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan hisoblab chiqish imkonini beradi. Bu esa keraksiz, samarasiz va biznesga ortiqcha yuk bo'ladigan hujjatlarning qabul qilinishini oldini oladi. Yana bir muhim yangilik – bu korrupsiyaga qarshi ekspertizaning joriy etilishidir. Endilikda har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasi unda korrupsiyaga yo'l ochib beruvchi bo'shliqlar, noaniqliklar va "ilmoqli" normalar bor-yo'qligi bo'yicha maxsus tekshiruvdan o'tadi. Shuningdek, qonunchilikdagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida "tartibga solish gilyotinasini" usuli qo'llanilmogda. Adliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu usul yordamida so'nggi yillarda minglab eskirgan, o'z ahamiyatini yo'qotgan va amaliyotda ishlayotgan idoraviy hujjatlar bekor qilinib, huquqiy baza ixchamlashtirildi va tozalandi.

Mavzuni tahlil qilish va o'rganish natijasida milliy huquq ijodkorligini yanada takomillashtirish zarurligi haqida xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, qonunlarda havolaaki normalardan voz kechish va to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlar salmog'ini keskin oshirish talab etiladi. Amaliyotda ko'pincha qonunda "qonunchilikda belgilangan tartibda" degan umumiy ibora ishlatiladi va asosiy mexanizm qonunosti hujjatlariga (vazirlik yo'riqnomalariga) tashlab qo'yiladi, bu esa ijrochilarga qonunni o'z manfaati yo'lida talqin qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, idoraviy normativ hujjatlarni qisqartirish siyosatini davom ettirish, fuqarolar va tadbirkorlar uchun majburiyatlar faqat Qonun bilan belgilanishiga erishish lozim. Uchinchidan, zamonaviy jamiyatda mavjud bo'lgan lobbizm (guruhli manfaatlar) faoliyatini huquqiy tartibga solish vaqti keldi. Qonun qabul qilish jarayonida turli ijtimoiy va biznes guruhlarining manfaatlarini yashirin yo'llar bilan emas, balki ochiq, shaffof va qonuniy ifodalash mexanizmini yaratish korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, huquq ijodkorligi davlat boshqaruvining "yuragi" bo'lib, u jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotning garovidir. Yuqori sifatli, ilmiy asoslangan va xalqchil qonunlar qanchalik ko'p bo'lsa, davlat va jamiyat munosabatlari shunchalik mustahkam bo'ladi. Raqamlashtirish davrida LegalTech texnologiyalaridan foydalanish, sun'iy intellekt yordamida qonunlardagi ziddiyatlarni aniqlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish huquq ijodkorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Zero, qonunlar xalq uchun xizmat qilishi, uning og'irini yengil qilishi va adolat tantanasini ta'minlashi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: "Adolat", 2018. – 312-320-betlar.
2. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2007. – 245-255-betlar.
3. O‘zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida"gi Qonuni. 2021-yil 20-aprel, O‘RQ-682-son.
4. Saburov N.S., Hayitboyev M. Huquq ijodkorligi nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDYUU, 2020. – 118-130-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2023. – 98-105-betlar.
6. Xayitov M. Parlamentarizm va qonun ijodkorligi: xorijiy tajriba va milliy amaliyot. Monografiya. – Toshkent: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari (Huquqiy axborot portali – lex.uz).